

Qudrataliyeva Shahloxon Sultonxon qizi

Mustaqil tadqiqotchi.

Kirish.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan beri mamlakatda turli islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, so'nggi yillarda "Yangi O'zbekiston" konsepsiysi asosida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jabhalarda keng qamrovli o'zgarishlar olib borilmoqda. Ushbu islohotlarning asosiy maqsadi – xalq farovonligini oshirish, adolatli boshqaruv tizimini shakllantirish hamda mamlakatni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqishdir.

Yangi O'zbekiston islohotlarining asosiy maqsadi – mamlakatni siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan yanada rivojlantirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda ularning hayot sifatini yaxshilashdan iborat. Bu islohotlar demokratik tamoyillarga asoslangan holda, O'zbekistonni barqaror taraqqiyot yo'liga olib chiqishga qaratilgan.

Asosiy qism

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z faoliyatini boshlaganidan buyon o'tgan qisqa davr ichida yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasi, bir qator kodeks va qonunlar, milliy strategiya va davlat dasturlarini qabul qilish tashabbuslarini ilgari surdi. Davlatimiz rahbari, shuningdek, Yangi O'zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini tiklashga qaratilgan ko'plab farmon, qaror va farmoyishlarni imzoladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz hayotining barcha sohalariga izchillik bilan joriy etilayotgan ana shu ko'lamdor, muhim va dolzarb huquqiy asoslarni yaratishning tub siyosiy-nazariy mohiyati O'zbekiston Prezidentining kitoblari, dasturiy ma'ruza va nutqlarida batafsil bayon etilgan. Shunday fundamental asarlardan biri – "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" kitobi 2022-yilda chop etilgan bo'lsa, 2024-yilda "Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston" nomli navbatdagi salmoqli siyosiy asar nashrdan chiqdi.

Yangi O'zbekiston islohotlari: Asosiy g'oyalar

- **Davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish** – Ochiq va shaffof boshqaruv tizimini yaratish, davlat xizmatlarini soddalashtirish va raqamlashtirish.

I. **Qonun ustuvorligini ta'minlash** – Adolatli va mustaqil sud tizimini shakllantirish, korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish.

- **Iqtisodiyotni erkinlashtirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash** – Xususiy sektorni rivojlantirish, sarmoyalarni uchun qulay muhit yaratish, bozor iqtisodiyotiga to'liq o'tish.

- **Ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish** – Yoshlarni zamonaviy kasblarga yo'naltirish, ta'lim sifatini oshirish va xalqaro tajribani joriy etish.

Date: 17th April-2025

- **Ijtimoiy himoya va farovonlikni oshirish** – Aholining zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, bandlikni oshirish va yashash sharoitlarini yaxshilash.

Yangi O'zbekiston islohotlarining nazariy asoslari: Yangi O'zbekiston islohotlari mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan yangilanishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ular turli nazariy asoslarga tayanadi. Ushbu nazariy asoslar quyidagi tamoyillar va konsepsiyalarni o'z ichiga oladi:

Davlat boshqaruvi va huquqiy tizimning nazariy asoslari.

Fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokini kengaytirish, ochiq muloqot va shaffoflikni ta'minlash tamoyillariga asoslanadi bu demokratir nazariya husiblanadi.

Qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish g'oyasi bu huquqiy davlat konsepsiysi.

Davlat idoralarining xalq oldidagi hisobdorligini oshirish va korrupsiyaga qarshi kurash bu javobgar davlat modeli.

Davlat boshqaruvi va huquqiy islohotlar.

Xalq bilan muloqot va shaffof boshqaruv. "Xalq qabulxonalari" tizimi yo'lga qo'yildi. Masalan, 2023-yilda Prezidentning virtual qabulxonasi orqali 3 milliondan ortiq murojaatlar qabul qilindi, ularning katta qismi ijobjiy hal qilindi.

Elektron davlat xizmatlari. Davlat xizmatlari markazlari va "my.gov.uz" portali orqali 100 dan ortiq xizmat onlayn shaklda ko'rsatilmoqda, bu esa fuqarolarning vaqt va mablag' tejasiga yordam bermoqda.

Sud-huquq tizimidagi islohotlar. 2021-yilda yangi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar kiritildi, bunda sud tizimining mustaqilligi mustahkamlandi va odil sudlov tamoyillari kuchaytirildi.

Xulosa

Yangi O'zbekiston islohatlari — bu Prezident Shavkat Mirziyoev tomonidan amalgalashirilayotgan keng ko'lamlı dasturlar bo'lib, mamlakat iqtisodiyoti, ijtimoiy sohasi, huquqiy tizimi va davlat boshqaruvidagi islohotlarni o'z ichiga oladi. Asosiy maqsad — iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy farovonlikni oshirish, huquqiy davlatni mustahkamlash va xalqaro maydonda O'zbekistonning o'rnnini kuchaytirishdir. Islohatlar jarayonida aholi fikrlari va takliflari hisobga olinishi muhim ahamiyatga ega.

Yangi O'zbekiston islohotlarni kuchaytirish uchun quyidagi takliflarni qo'llash mumkin. Tashqi siyosatni va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish kerak, qo'shni davlatlar bilan chegara muammolarini hal qilish mumkin. Undan tashqari korrupsiyaga qarshi chora tadbirlarni kuchaytirish hamda tashkilotlarda davlat sohalarida korrupsiyani nazorat qilish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvarida Parlamentga murojaatnomasi.

Date: 17th April-2025

- 2.[https://uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/6590-yangi-o-zbekiston-islohotlar-dunyo-e-tirofida.html](https://uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/6590-yangi-o-zbekiston-islohotlar-dunyo-etirofida.html).
- 3.<https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekiston-islohotlar-dunyo-etirofida->

